



UDC:(UO'K, УДК): 8.11.134.2

Saodat KAMOLIDDINOVA,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti tadqiqotchisi
E-mail: s.kamoldinova8@gmail.com

DSc, professor D.Baxronova taqrizi asosida

“YER-TIERRA” KOMPONENTLI FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING KONSEPTUAL - SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Аннотация

Ushbu maqolada tarkibida “YER-TIERRA” komponenti mavjud bo'lgan frazeologik birliklarning semantik-konseptologik xususiyatlari tahlil qilinadi. Bu frazeologizmlar orqali YER tushunchasining turli tillarda qanday talqin qilinishi, uning metaforik, obrazli va semantik jihatdan qay tarzda shakllanishi hamda milliy tafakkurdagi o'rini ochib berish maqsad qilingan. Mazkur tahlil frazeologik birliklarning konseptual asoslarini, ularning milliy va universal xususiyatlarini aniqlashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Frazeologizm, dunyoqarash, mentalitet, konseptual-semantik, ispan tili, o'zbek tili.

CONCEPTUAL AND SEMANTIC FEATURES OF PHRASEOLOGICAL UNITS WITH THE “YER – TIERRA” COMPONENT

Annotation

This article analyzes the semantic and conceptual characteristics of phraseological units containing the “YER – TIERRA” component. It examines how the concept of “YER (EARTH)” is interpreted in different languages, how it is formed in terms of metaphorical, figurative, and semantic aspects, and its role in national thinking. This analysis helps to determine the conceptual foundations of phraseological units, as well as their national and universal characteristics.

Key words: Phraseology, worldview, mentality, conceptual-semantic, Spanish language, Uzbek language.

КОНЦЕПТУАЛЬНО-СЕМАНТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ С КОМПОНЕНТОМ «YER – TIERRA»

Аннотация

В данной статье анализируются семантические и концептуальные особенности фразеологических единиц, содержащих компонент «YER – TIERRA». Исследуется, каким образом концепт «ЗЕМЛЯ» интерпретируется в различных языках, как он формируется с точки зрения метафоричности, образности и семантики, а также определяется его место в национальном мышлении. Данный анализ способствует выявлению концептуальных основ фразеологизмов, их национальных и универсальных характеристик.

Ключевые слова: Фразеологизм, мировоззрение, менталитет, концептуально-семантический, испанский язык, узбекский язык.

Kirish. Frazeologizmlar tilning o'ziga xos qatlamlaridan biri bo'lib, ularning tarkibiy va semantik xususiyatlari tilshunoslikda muhim va dolzarb tadqiqot obyekti hisoblanib kelmoqda. Frazeologik birliklar o'z mazmun-mohiyatiga ko'ra, nafaqat tildagi tayyor konstruksiyalar, balki xalqning dunyoqarashi, madaniyati va mentalitetini aks ettiruvchi lingvomadaniy va kognitiv hodisa sifatida ham namoyon bo'ladi. Ularning semantik tuzilishi va konseptual asoslarini o'rganish, ushbu birliklarning tilda va nutqda tutgan o'rini belgilash hamda ular orqali ifodalangan ma'no qatlamlarini tadqiq qilish bilan chambarchas bog'liq.

Frazeologizmlar tilda turli funksional-semantik vazifalarni bajaradi, ularda obrazlilik, ekspressivlik va milliy xususiyatlar mujassam, bu birliklarning kognitiv-konseptual jihatlarini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir tilning frazeologik boyligi xalqning tarixiy, madaniy va psixologik tajribasini aks ettiruvchi o'ziga xos elementlarga egaligi ularning konseptual asoslarini o'rganish orqali til va tafakkur o'rtasidagi bog'liqlikni ochib berishga xizmat qiladi.

Ushbu maqola frazeologik birliklarning nazariy asoslarini, ularning semantik va konseptual xususiyatlarini o'rganishga qaratilgan, tilshunoslikning zamonaviy yondashuvlari asosida frazeologizmlarning lingvomadaniy hamda semantik xususiyatlarini tahlil qilishni maqsad qilib qo'ygan. Frazeologizmlarning semantik tarkibi, ularning ma'no tuzilishi va konseptual asoslari til tizimida qanday namoyon bo'lishi tadqiqotning asosiy masalalaridan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, frazeologik birliklarning turli tillardagi qiyosiy tahlili orqali ularning umumiy va milliy-madaniy jihatlarini aniqlash imkoniyati ham mavjud.

Umuman olganda, bunday tadqiqotlarning dolzarbligi frazeologizmlarning semantik-konseptual xususiyatlarini aniqlash

va ularning milliy-madaniy xususiyatlarini ochib berish zarurati bilan belgilanadi. Zotan, tilning ko'chma mazmunga ega qatlamini o'rganish, uni semantik va konseptual nuqtai nazardan tahlil qilish natijasida nafaqat til tizimining ichki mexanizmlari chuqurroq ochiladi, balki til, tafakkur va madaniyat o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlashga imkon beradi (Boldirev).

Olimlarning fikricha, frazeologik birliklarning semantik-konseptologik xususiyatlari ularning til tizimida tutgan o'rnidan tashqari madaniy konnotatsiyalarini ham yorqin ochib beradi (Abdullayeva, Baxronova, Zaripova). Xususan, ispan hamda o'zbek tillarida qo'llangan YER va TIERRA komponentli frazeologik birliklarning konseptual - semantik qamrovini tushunish bu ikki xalqning o'ziga xosligini anglashda katta ahamiyat kasb etadi.

“Yer” va “Tierra” konsepti insoniyat hayotining ajralmas qismi bo'lib, u turli xalqlarning madaniyati, dunyoqarashi va e'tiqodlarida muhim o'rin tutadi. Bu konsept quyidagi asosiy yo'nalishlarda tahlil qilinishi mumkin:

Milliy-madaniy va mifologik ahamiyati. Ko'pgina xalqlarda YER konsepti hayotning asosi sifatida qabul qilingan. O'zbek va ispan madaniyatlarida ham yer ona timsoli, hayot manbai, hosildorlik va barqarorlik timsoli sifatida talqin qilinadi. Masalan, o'zbek tilida “Ona yer”, “Ona zamin”, “Ona tuproq” (O'zbekiston, ota makon, ona tuproq! I.Mirzo) ispan tilida ham “Madre Tierra”, “Madre Patria”, “Madre Suelo” iboralari mavjud, ikkalasi ham yerning inson hayotidagi ahamiyati va onadek muqaddasligini aks ettiradi. Ispan tilidagi “Madre Fogon” (“Ona o'choq”) iborasi ham uchraydi, o'zbek tilida ham “o'choq” kulti oila, birdamlik kabi xususiyatlarni bildirsa-da, biroq uning onaga mengzalgan varianti mavjud emas.

b) Qishloq xo'jaligi va iqtisodiyotdagi o'rni. Yer – insoniyat uchun asosiy resurslardan biridir, u qishloq xo'jaligi,

chorvachilik va sanoat uchun muhim manba hisoblanadi. O'zbek xalqi azaldan dehqonchilik bilan shug'ullanib kelgan, shu sababli "yerni boqsang, u seni boqadi", "dehqonning xazinasi – yer, kaliti – ter", "yerga sochsang, yer beradi, elga sochsang – el" kabi iboralar xalq tafakkuridan mustahkam o'rin olgan. Ispan tilida ham TIERRA leksemali qator frazeologizmlar mavjud, masalan, "La Tierra es un lugar de belleza, pero también de fragilidad" (yer go'zal, lekin ayni paytda mo'rt hamdir), "la tierra nos da todo, no la desperdiciemos" (yer bizga hamma narsani beradi, isrof qilmaylik), "del mar, el mero, y de la tierra, el carnero" (dengizdan baliq, yerdan qo'chqor), iboralari tabiat, dehqonchilik va yerning hosildorlik xususiyatlarini ifodalaydi.

3. Ruhiy va falsafiy jihati. Ko'pgina falsafiy tushunchalar va dinlarda yer barqarorlik, hayotning ibtidosi va so'nggi qo'nim topish timsoli sifatida ko'riladi. O'zbek madaniyatida "Ona Yer o'z bag'rida oldi" deganda, insonning vafot etib, tuproqqa qo'yilishi anglashiladi. Ispan tilida esa "volver a la tierra" (yerga qaytmoq), "de la tierra venimos, a la tierra vamos" (yerdan keldik, yerga boramiz)

Bu birliklarda hayotning muqarrar yakuniy nuqtasi sifatida yer leksemasi ishlatiladi.

4. Frazeologik birliklardagi o'rni. Har ikki tilda ham YER konsepti bilan bog'liq ko'plab frazeologik birliklar mavjud. Masalan, o'zbek tilidagi "yer yutmoq" (kutilmaganda g'oyib bo'lish), "yer-u ko'kka sig'maslik" (o'zini qo'ygani joy topolmaslik); ispan tilidagi "estar por los suelos" (yer bilan bitta bo'lmoq, yerga urilmoq (sha'ni), kayfiyati tushkun bo'lmoq), "poner los pies en la tierra" (oyog'i yerdan uzilmagan bo'lish, real fikrlash, haqiqatga yuzlanish) keltirish mumkin.

Ko'rinib turibdiki, YER konsepti insoniyat hayotining ajralmas qismi bo'lib, u turli xalqlar madaniyatida muhim o'rin egallaydi. O'zbek va ispan tillarida bu konsept milliy o'ziga xosliklar bilan birga umumiy madaniy qadriyatlarni ham aks ettiradi. Yerning ona timsoli, hayot manbai va falsafiy ma'nosi bu konseptning inson hayotidagi chuqur ildizlarini ko'rsatadi. O'zbek tilidagi "oyog'i yerdan uzilgan bo'lmoq" (o'zini katta tutish, kibrilanish) yoki "yer bo'lmoq" (xokisorlik; past tutish; izza bo'lish) kabi frazeologizmlarda YER konsepti insonning ijtimoiy holati bilan bog'liq, ular tavozelik, hurmat, noqulay holatga tushish kabi tushunchalarga ishora qiladi. Ispan tilidagi "besar la tierra" (yerni o'pmoq) ifodasi insonning itoatkorlik, kamtarlik yoki hurmat darajasini anglatuvchi iboradir.

Frazeologik birliklarning semantik tasnifi ularning umumiy konseptologik asosga egaligini ko'rsatadi. Xususan, YER va TIERRA leksemalari turli madaniyatlarga oid bo'lsa ham, ularning asosiy semantik maydoni odatda mavjudlik, mustahkamlik, tavozelik, hayotiylik, boqiylik, bosiqlik va barqarorlik kabi tushunchalarini o'z ichiga oladi. Biroq, ular har bir tilda o'ziga xos madaniy xususiyatlarni ifodalash uchun turlicha talqin qilinishi mumkin.

Frazeologik birliklarning ma'nosi ba'zan kontekst orqali aniqlanishi mumkin, bu ularning qay darajada emotsionallikni ifodalayotgan nutqdagi qo'llanilishiga bog'liq. O'zbek tilida "yerning ostiga kirmoq", "yer yorilsa-yu, yerga kirib ketmoq" (o'ta xijolat bo'lish) kabi iboralar holatni tasvirlash uchun xizmat qilsa, ispan tilidagi "tragarse la tierra" (yer yutib yuborgan kabi yo'q bo'lish) iborasi ham shunga yaqin ma'noga ega. Ushbu turli-tuman mazmun-mohiyatga ega bo'lish frazeologik birliklarning semantik-konseptologik tahlili natijasida aniqlanadi.

Demak, frazeologik birliklarning semantik-konseptologik xususiyatlarini tadqiq qilishda ularning madaniy asosini hisobga olish, konseptlarning qamrovini aniqlash va turli tillardagi adabiyot namunalaridan misollar orqali o'zaro qiyosiy-chog'ishtirma tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Konsept – bu til birliklari orqali anglashiladigan tushuncha bo'lib, tafakkurimizda qanday talqin qilinishiga bog'liq. Har bir tilda konseptlarning soni va mazmuni turlicha. Ba'zi olimlarning fikricha, har bir millat va madaniyatda asosiy konseptlar majmuasi mavjud bo'lib, millat tafakkuri aynan shu konseptlar atrofida shakllanadi. Konseptlarning o'ziga xosligi shundaki, ular mutlaq yopiq tizim bo'lmay, bir-biri bilan ma'no asosida bog'lanib, o'zaro aloqadorlik hosil qiladi.

Olamning lisoniy manzarasida konseptosfera til birliklari va ma'nolar majmuasi orqali ifodalanadi. D.Baxronovanning

fikricha, insonga hayot muallimlik vazifasini o'taydi. Hayot davomida olingan bilim va tajriba tezaurusda to'planadi. Sinovlardan muvaffaqiyatli o'tgan, saralangan bilim tafakkurda sobitlashadi. Demak, bilim-tajriba-ilm uchligi, bir umr sinilib, eng zaruriylari konsentrat bo'lib inson tafakkuri va genida yashab qoladi, ajdoddan avlodga o'tadi. Olima konsept va konseptosfera masalasini o'rganib, konseptni quyidagicha ta'riflagan: "konsept inson ongu-shuurida dunyo, voqelik hamda shaxsning o'zi haqidagi axborot, bilimlar va baholarni tasavvur qilishning muayyan tuzilmalari ko'rinishida qorishiq saqlanadi va tizimlanadi. Muayyan narsa-predmetning konsepti makon va zamonda o'zgaruvchan xususiyatga ega bo'lib, u qotib qolgan "jism" emas, balki kulol qo'lidagi loydek turli ko'rinishni egallaydi". Demak, konseptning shakllanishiga vaqt va atrof-muhitning ta'siri katta. Shu sababli turli etnoslarda bir konsept ba'zan turfa ma'nolarda qo'llanadi. Bu jarayonda ma'lum bir konseptga oid tushuncha va ma'nolar maydoni yoki ularning yig'indisi konseptosferani tashkil etadi. Konseptosfera alohida so'zlar orqali ham namoyon bo'lishi mumkin. Konsept va konseptosfera tushunchalarining umumiy jihati shundaki, ular inson ongida shakllanib, muayyan obrazilarni aks ettiradi. Binobarin, konseptosfera fikrlashning in'ikosi hisoblanadi, u universal predmetga oid ramziy birliklarning majmuasi sifatida insonning axborot doirasini belgilaydi va so'z, metafora, frazeologizmlar hamda sintaktik tuzilmalar orqali ifodalanadi.

Rus olimi G.Slishkinkonseptosferani inson tafakkurining soddalashtirilgan modeli sifatida talqin etadi. Unga ko'ra, konseptosfera milliy qadriyatlarni umumlashtiruvchi tizim bo'lib, ilmiy va maishiy hayotdagi haqiqat, yolg'on hamda tushuniladigan ma'nolar yig'indisini o'z ichiga oladi. Boshqa tomondan, konseptosfera – idrok etilgan obyektlarning semantik tahliliga asoslangan tushunchalar tizimi bo'lib, u doimiy rivojlanib boradi. D.Baxronovanning ta'kidicha, "konseptosfera fikrlash in'ikosi sifatida insonlarning axborot doirasini tashkil qilib, u til birliklari bo'lgan so'z, metafora, frazeologizm, sintaktik struktura kabilar orqali yozma va og'zaki nutqda verballashadi". Inson faqat o'z konseptual tizimidagi ma'nolarni tushunishga qodir bo'lib, obyektlarni talqin qilish usuli ham shu tizimga bog'liq. Konseptlar o'zaro tizimli munosabatda bo'lgani sababli, ularni chuqur anglash muhim ahamiyat kasb etadi.

"Yer-Tierra" konsepti tabiatga oid elementlar ichida eng ko'p integratsiyalangan va frazeologik birliklar yaratishda keng qo'llaniladigan tushunchalardan biri hisoblanadi. Bu konsept semantik jihatdan keng qamrovlidir, turli tillardagi turg'un iboralar tarkibida faol ishlatiladi.

Masalan, ispan tilidagi "En cada tierra su uso" maqoli "har bir yerda o'sha hududning urf-odatlariga moslashish tavsiya etiladi" degan ma'noni anglatadi. Ushbu maqolga o'zbek tilidagi "Har yerni qilma orzu, har yerda bor tosh-u, tarozu" maqoli ekvivalent bo'la oladi va har bir mamlakat yoki hududning o'z qonun-qoidalari, yaxshi va yomon tomonlari borligi hamda o'z vatani, tug'ilgan yeri aziz joy ekanligi implisit ravishda ifodalanadi.

Keyingi "quedarse en la tierra" so'zma-so'z tarjimada "yerda qolib ketish" yoki "ulovsiz piyoda qolib ketish" mazmuni anglashilsa-da, aslida biror kishi o'ylagan maqsadiga erisha olmaganida, u yoki bu vaziyat u xohlaganidek bo'lmaganida, niyati amalga oshmaganida ishlatiladi. O'zbek tilidagi "chuchvarani xom sanamoq" yoki "umidi puchga chiqmoq" iborlaridagi muvaffaqiyatsizlik, reja barbod bo'lishi, ko'zlagan maqsadiga erisha olmaslik semalari ispanchadagi farzeologizmga mazmun jihatdan birmuncha yaqindir. Biroq, to'g'ridan-to'g'ri tarjimadagi "yerda qolmoq" iborasi o'zbek adabiy va og'zaki tilida ko'p uchraydi, masalan, "so'zi yerda qolmoq" mazmunida "e'tiborsiz qoldirmoq, hurmatsizlik qilmoq" ma'nolari anglashiladi.

"O'lim" konseptining ramziy harakat sifatida qaralishida ispan tilidagi "estar bajo la tierra", "estar comiendo la tierra" ("yer ostida qolmoq", "yerni yemoq, tishlamoq") iboralari o'lgan, vafot etgan, ko'milgan mazmunini anglatadi. O'zbek tilida "yer tishlamoq" iborasi peyorativ mazmunda "o'lmoq"; "yer tishlatmoq" esa, "mag'lub etmoq, yengmoq, o'ldirmoq" kabi mazmunda ishlatiladi.

Til – inson tafakkurining aks sadosi bo'lib, unda madaniy qadriyatlar, dunyoqarash va ijtimoiy munosabatlar o'z ifodasini

topadi. Xususan, frazeologik birliklar tilning badiiy-estetik qirralarini yoritishda muhim vositadir. Ushbu maqolada ispan va o'zbek tillarida "yer" konsepti asosida shakllangan frazeologizmlarning konseptual-semantik va stilistik jihatlari tahliliga e'tibor berildi. Ispan tilidagi "Faltar a alguien tierra debajo de los pies" frazeologik birligi ishonchsizlik, beqarorlik va xavf hissini ifodalaydi. Bunda "yerning oyoq ostidan yo'qolishi" tasviri orqali inson o'zini himoyasiz, noqulay his qilishi aks ettirilgan. Ushbu iborani o'zbek tiliga "o'zini qo'yarga joy topolmadi" yoki kontekstga qarab "tagiga suv quydi" tarzida tarjima qilish mumkin. Ramziy ma'noda "yer" konsepti ispan tilida barqarorlik va ishonch bilan bog'liq bo'lsa, o'zbek tilida "joy" va "tag" komponentlari orqali ifodalanadi.

Shunga qarama-qarshi ma'noda ispan tilida "Con los pies en la tierra" (yerdan oyoqlari bilan (mahkam turmoq) frazeologik birligi qo'llaniladi. Ushbu birikma shaxsning qat'iyyati, o'ziga bo'lgan ishonchi va hayotga realistlik yondashuvini aks ettiradi. O'zbek tilida mazkur iboraga ekvivalent sifatida "o'z ishinig ustasi" yoki "yerdan mustahkam turmoq" shakllardan foydalanish mumkin.

Har qanday rejaning buzilishi yoki amalga oshmay qolishi tushunchasi ispan tilida "Echar por tierra" (yer bilan yakson qilish) iborasi orqali beriladi. O'zbek tilida bu tushunchaga mos keluvchi ekvivalent sifatida "yer bilan yakson

qilish" yoki "chippakka chiqarish" birikmalari ishlatiladi. Ushbu frazeologizmlar biror ishning tashqi omillar sababli amalga oshmay qolishini ifodalash uchun qo'llanadi.

Ispan tilidagi "Ser el ombligo de la tierra" (yerning kindigi bo'lish) iborasi ikki xil kontekstda ishlatiladi. Birinchisi – dunyo miqyosida muhim voqea yoki shaxsni tasvirlash, ikkinchisi esa insonning o'ziga bino qo'yishi, muhim va markaziy shaxs deb hisoblashidir. O'zbek tilida unga ekvivalent sifatida "o'zini dunyoning markazi deb bilmoq", "manman bo'lmoq" kabi ifodalardan foydalanish mumkin.

Qisqa qilib aytganda, frazeologik birliklar milliy madaniyat va tafakkurning ifodasi bo'lib, har bir xalqning dunyoqarashini aks ettiradi. Ushbu maqolada ispan va o'zbek tillarida "yer" konsepti asosida shakllangan frazeologizmlar konseptual-semantik jihatdan tahlil qilindi. Ispan va o'zbek frazeologiyasi o'ziga xos bo'lishiga qaramay, ayrim jihatlarda o'zaro mos tushuvchi obrazlarga ega. Jumladan, "yer yutdi", "yer bilan yakson qildi" kabi iboralar ikkala tilda ham mavjud, ular insoniy tajribalarni ifodalashda universal tus olganligi oydinlashdi.

Ushbu tadqiqot frazeologik birliklarning nafaqat kognitiv, balki madaniy jihatdan ham qanchalik muhim ekanligini ko'rsatdi. Bunday iboralarni chuqur o'rganish til va madaniyatning uzviy bog'liqligini yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi.

ADABIYOTLAR

1. Абдуллаева Р. Оламнинг лисоний манзараси// ФарДУ Илмий хабарлари. – Фарғона, 2018. – No 5. – Б. 133-137.
2. Бахронова, Д. (2019). Оламнинг лисоний манзараси тасвирида концепт ва концептосфера. Хорижий филология, 3, 62-68.
3. Болдырев Н.Н. Когнитивная семантика. Курс лекций по английской филологии. – Изд. 2-е, стер. – Тамбов: Изд-во Тамб. ун-та, 2001. – 123 с.
4. Слышкин Г. Г. Лингвокультурный концепт и идеология // Известия ВГПУ. – 2005. No3. – С. 31.
5. Bakhronova, D. (2021). Words and culture. Language, globalization and intercultural. Religación. Revista De Ciencias Sociales Y Humanidades, 6(27), 239-246.
6. Baxronova, Dilrabo, & Kamoliddinova, Saodat (2024). OLAMNING KONSEPTUAL MANZARASIDA "YER – TIERRA" LEKSEMASINING KOGNITIV-SEMANTIK TAHLILI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 4 (1), 309-316.
7. Zaripova R.I. Ingliz va o'zbek tillarida oddiy so'zlashuv nutqiga xos frazeologizmlarning adabiy normaga munosabati: filol. f. d. (PhD) dis. avtoref. – Buxoro, 2020. – 50 b.
8. Baxronova D. O'zbek va ispan tillarida olam manzarasining lingvokognitiv kategoriyalanishi: Filol.f.d.(DSc) dis. – Toshkent, 2022. – 245 b.